


2023-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 35 337,5 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 124,4 % ga oʻsib, 14 820,3 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 41,9 % ni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdo va ovqatlanishni qoʻshmagan holda) tarkibi, foizda (2023- yil yanvar–iyun holatiga)



2023-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 1,1 mlrd.soʻmni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,01 % ni tashkil qildi.


Nodavlat mulki 35 336,5 mlrd. soʻmni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,99 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega boʻlgan Chilonzor tumani 18,6%, Yunusobod tumani 11,1%, Shayxontohur tumani 10,5%, Yakkasaroy tumani 9,6 %, Uchtepa tumani 8,9%, Yashnobod tumani 8,5%, Olmazor tumani 7,8%, Mirobod tumani 7,7%, Mirzo Ulugʻbek tumani 7,1%, Sergeli 5,1%, ni tashkil etgan boʻlsa, Bektemir 3,7%, Yangihayot tumani 1,4% bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.




## Tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda

2023 -yil yanvar–iyun oylarida



## Chakana savdo tovar aylanmasining tumanlar kesimida o'sish sur'ati, foizda

2023 -yil yanvar–iyun oylarida






Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan, jumladan eng katta o'sish sur'ati Yangihayot tumani 125,8 %, Sergeli tumani 123,2 % va Shayxontohur tumani 120,2% bilan Toshkent shahrida yetakchilik qilmoqda, o'sish sur'ati nisbatan pastroq ko'rsatkichlar: Olmazor tumani 104,5 %, Yunusbod tumani 102,2 %, Uchtepa tumani 101,4 % ni tashkil etgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3 376,5 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etgan. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Shayxontohur tumani 25,1 %, Yunusobod tumani 13,6 % , Mirzo Ulug'bek tumani 10,7% ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,6 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Tumanlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi ulushi, foizda**  
**2023 -yil yanvar–iyun oylarida**



Avto savdo va ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 11,9 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Yakkasaroy tumani (26,2 mln. so'm), Chilonzor tumani (24,1 mln. so'm), Bektemir tumani (23,2 mln. so'm), Mirobod tumani (18,1 mln. so'm), Uchtepa tumani (10,6 mln. so'm) kuzatildi.



**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi**  
(2023-yil yanvar-iyun, avto savdo va umumiy ovqatlanishni qo'shmagan holda)


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida	ming so'm	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida
<b>Toshkent shahar</b>	<b>35 337,5</b>	<b>111,7</b>	<b>11 866,2</b>	<b>108,2</b>
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	1 321,2	112,7	23 179,5	104,0
Mirzo Ulug'bek	2 510,9	113,1	7 723,0	110,0
Mirobod	2 711,3	115,6	18 051,1	113,1
Olmazor	2 773,2	104,5	6 976,6	101,9
Sergeli	1 808,8	123,2	11 056,0	113,2
Uchtepa	3 136,3	101,4	10 627,9	98,9
Chilonzor	6 572,3	111,5	24 083,3	109,5
Shayxontohur	3 711,8	120,2	10 259,4	118,3
Yunusobod	3 920,6	102,2	10 613,4	99,8
Yakkasaroy	3 381,7	120,0	26 174,1	115,8
Yashnobod	3 003,9	112,7	10 283,7	108,3
Yangihayot	485,6	125,8	2 959,0	117,9

2023-yilning yanvar–iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 68 965,1 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 34,2 % ga teng boʻlib, hajmi 23 569,7 mlrd. soʻmni tashkil etganini koʻrish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan Olmazor tumani 15,1 %, Yashnobod tumani 13,9 % ni tashkil etgan boʻlsa, Bektemir tumani 1,2 % va Yangihayot tumani 0,9 % ulush bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.

**Tumanlarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**  
2023-yil yanvar–iyun oylarida



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) tarkibi, foizda**  
2023- yil yanvar–iyun oylarida





Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,8 % ga ko'payib, 45 395,4 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 65,8 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz)***(2023- yil yanvar-iyun)*

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>68965,1</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	796,1	1,2
Mirzo Ulug'bek	5 836,1	8,5
Mirobod	7 552,8	11,0
Olmazor	10 403,0	15,1
Sergeli	3 121,0	4,5
Uchtepa	4 254,5	6,2
Chilonzor	8 669,9	12,6
Shayxontohur	4 058,9	5,9
Yunusobod	5 881,9	8,5
Yakkasaroy	8 173,7	11,9
Yashnobod	9 593,9	13,9
Yangihayot	623,3	0,9

## Yirik korxonalarining ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi

(2023- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>23569,7</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	58,3	7,3
Mirzo Ulug'bek	1 305,3	22,4
Mirobod	1 410,4	18,7
Olmazor	4 482,6	43,1
Sergeli	1 522,6	48,8
Uchtepa	362,7	8,5
Chilonzor	2 611,4	30,1
Shayxontohur	1 047,6	25,8
Yunusobod	1 853,4	31,5
Yakkasaroy	3 382,2	41,4
Yashnobod	5 347,6	55,7
Yangihayot	185,5	29,8

Toshkent shahrida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 125,6 % ga o'sib, 23 569,7 mlrd. so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 34,2 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Yashnobod tumani 22,7 %, Olmazor tumani 19,0 %, Yakkasaroy tumani 14,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot 0,8 % va Bektemir tumanlari 0,2 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



**Yirik korxonalarining chakana savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi**  
(2023- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>14820,3</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	231,8	1,6
Mirzo Ulug'bek	1 132,3	7,6
Mirobod	1 463,0	9,9
Olmazor	1 178,9	8,0
Sergeli	1 022,0	6,9
Uchtepa	546,7	3,7
Chilonzor	2 555,0	17,2
Shayxontohur	2 033,2	13,7
Yunusobod	1 778,6	12,0
Yakkasaroy	1 428,3	9,6
Yashnobod	1 200,2	8,1
Yangihayot	250,4	1,7

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani 17,2 %, Shayxontohur tumani 13,7 %, Yunusobod tumani 12,0 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 1,6 %, Yangihayot tumani 1,7 % va ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



## Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi (2023- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 209,4</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	33,3	2,8
Mirzo Ulug'bek	22,7	1,9
Mirobod	41,7	3,4
Olmazor	12,8	1,1
Sergeli	204,6	16,9
Uchtepa	0,4	-
Chilonzor	31,2	2,6
Shayxontohur	606,2	50,1
Yunusobod	162,0	13,4
Yakkasaroy	20,1	1,7
Yashnobod	74,4	6,2
Yangiheyot	-	-

Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Shayxontohur tumani 50,1 %, Sergeli 16,9 %, Yunusobod tumani 10,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Olmazor tumani 1,5 % eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Chakana savdo** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumiy ovqatlanish** – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolati va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Ulgurji savdo** – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.